

XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2023-yil 1-yanvar holatiga 1976,3 ming kishini tashkil etib, 2022-yil boshidan 27,8 ming kishiga ya’ni 1,4 % ga o‘sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 967,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,0 %), qishloq aholisi soni 1008,8 ming kishini (51,0 %) tashkil etdi.

E’tibor bering:

2022 yil yanvar-dekabr oylarida

- Aholi soni **27,8 ming** kishiga ko‘paydi.
- Tirik tug‘ilganlar soni **42,9 ming** nafarni tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **9,6 ming** nafarni tashkil etdi.
- Nikohlar soni **14,9 ming** nafarni tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **2,1 ming** nafarni tashkil etdi

2022-yilning Yanvar-dekabr oylarida

Yil boshida
doimiy aholi soni
1 948 488 kishi
(2022 yil 1 yanvar holatiga)



42,9 *ming bola*

Tug‘ilganlar soni



9,6 *ming kishi*

O‘lganlar soni



7,8 *ming kishi*

Ko‘chib kelganlar soni



13,2 *ming kishi*

Ko‘chib ketganlar soni

Doimiy aholi soni
1 976 341 kishi
(2023-yilning 1-yanvar holatiga)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni¹⁾ (2023-yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 976,3	967,5	1 008,8
Nukus sh.	334,6	334,6	-
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	208,6	53,9	154,7
Beruniy	201,2	71,2	130,0
Bo‘zatov	21,9	5,5	16,4
Qonliko‘l	53,1	13,4	39,7
Qorao‘zak	54,1	16,4	37,7
Kegeyli	74,2	30,0	44,2
Qo‘ng‘irot	134,6	85,0	49,6
Mo‘ynoq	33,4	14,8	18,6
Nukus	52,9	10,7	42,2
Taxiatosh	76,3	54,6	21,7
Taxtako‘pir	39,0	16,8	22,2
To‘rtko‘l	224,7	84,7	140,0
Xo‘jayli	127,4	81,2	46,2
Chimboy	115,0	59,0	56,0
Shumanay	57,6	15,1	42,5
Ellikqal’a	167,7	20,6	147,1

¹⁾ dastlabki ma'lumot

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni
(1-yanvar holatiga ming kishi)

	2022 y.	2023 y.	O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘ati % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 948,5	1 976,3	101,4
Nukus sh.	329,0	334,6	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	204,8	208,6	101,9
Beruniy	197,4	201,2	101,9
Bo‘zatov	21,8	21,9	100,5
Qorao‘zak	53,6	54,1	100,9
Kegeyli	73,6	74,2	100,8
Qo‘ng‘irot	132,8	134,6	101,4
Qonliqo‘l	52,4	53,1	101,3
Mo‘ynoq	33,0	33,4	101,2
Nukus	51,9	52,9	101,9
Taxiatosh	75,5	76,3	101,1
Taxtakopir	40,6	39,0	96,1
To‘rtko‘l	221,0	224,7	101,7
Xo‘jayli	125,5	127,4	101,5
Chimboy	114,0	115,0	100,9
Shumanay	57,0	57,6	101,1
Ellikqal’a	164,6	167,7	101,9


Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2021 y.	2022 y. ¹⁾	o‘shish, kamayish	2021 y.	2022 y. ¹⁾
Tug‘ilganlar	40272	42854	2 582	20,8	21,8
O‘lganlar	8 756	9 588	832	4,5	4,9
Tabiiy o‘shish	31 516	33 266	1 750	16,3	16,9
Nikohlar	15 746	14 868	-878	8,1	7,6
Ajralishlar	1 467	2 067	600	0,8	1,1

Tug‘ilish darajasi. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 42 854 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (40 272 kishi) nisbatan 2 582 kishiga yoki 6,4 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 21,8 promilleni tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (20,8 promille) nisbatan 1,0 promillega ko‘paydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-dekabr oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug‘ilish darajasining ko‘payishi Respublikaning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Nukus shahrida 19,1 dan 21,1 promillega, Beruniyda 21,1 dan 24,8 promillega Xo‘jaylida 20,7 dan 22,4 promillega, va Ellikqal‘ada 22,6 dan 24,2 promillega ko‘payishi kuzatilgan.


¹⁾ dastlabki ma'lumot

Tug‘ilish. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 42,9 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tiriktug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 21,8 promilleni tashkil etdi hamda 2021 yilning mos davriga nisbatan 1,0 promillega ko‘payganligi (2021 yilning yanvar-dekabr oylarida 20,8 promille bo‘lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2022 yilning yanvar-dekabr oylarida)




O‘lim darajasi. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni 9 588 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (8 756 kishi) nisbatan 832 kishiga yoki 9,5 foizga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,9 promilleni tashkil qildi (2021 yilning yanvar-dekabr oylarida 4,5 promille).

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O'lim koeffitsientlari




O'lim ko'rsatkichlarining yuqoridarajasi Nukus shahrida (4,3 dan 5,2 promillega), Taxtakopirda (5,2 dan 6,5 promillega), Qorao'zakda (4,7 dan 5,7 promillega), Bo'zatovda (3,9 dan 4,7 promillega) va Xo'jaylida (4,4 dan 5,0 promillega) ko'payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 14,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,6 promilleni tashkil etdi.




Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2022 yilning yanvar-dekabr oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYo organlari tomonidan 2,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,1 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti (2022 yilning yanvar-dekabr oylari holatiga)





Nikohlar va ajralishlar. 2022 yilning yanvar-dekabr oylari FHDYO organlarida 14 868 ta nikohlar va 2 067 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 7,6 ta nikoh (2021 yilning tegishli davrida 8,1 ta) va 1,1 ta ajralishlar (2021 yilning tegishli davrida 0,8 ta) to'g'ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni (2022 yilning yanvar-dekabr oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2021 y.	2022 y. ²⁾	2021 y.	2022 y. ²⁾
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15 746	14 868	1 467	2 067
Nukus sh.	2 740	2 369	304	445
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	1 822	1 734	139	184
Beruniy	1 592	1 650	91	192
Bo'zatov	167	145	13	22
Qonliko'l	436	352	33	64
Qorao'zak	350	365	35	50
Kegeyli	608	486	50	68
Qo'ng'iro't	1 133	1 205	128	168
Mo'ynoq	274	194	15	35
Nukus	534	438	46	58
Taxiato'sh	508	493	78	93
Taxtako'pir	245	219	24	52
To'rtko'l	1 764	1 714	156	176
Xo'jayli	987	955	130	144
Chimboy	832	785	85	130
Shumanay	364	332	43	45
Ellikqal'a	1 390	1 432	97	141

Migratsiya¹(Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida Respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 7 754 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 13 167 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


		2021 yilning yanvar-dekabr oylarida	2022 yilning yanvar-dekabr oylarida
	Ko'chib kelganlar	11 826	7 754
	Ko'chib ketganlar	18 588	13 167
+ -	Migratsiya saldosi	-6 762	-5413

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida migratsiya qoldig'i minus 5 413 kishiga (2021 yilning shu davrida minus 6 762 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Taxtakopir (minus 2 065), Chimboy (minus 589) va Amudaryo (minus 411) tumanlarida kuzatilgan.


yanvar-dekabr oylarida

Soni, ming kishi

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



¹ shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo'shgan holda
² dastlabki ma'lumot


Poytaxtdagi demografik xolat



Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2023 yil 1 yanvar holatiga 334,6 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 5,6 ming kishi ga yoki 1,7 % ga o'sgan.

Nukus shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan promille)

2021 yilning yanvar-dekabr oylarida	2022 yilning yanvar-dekabr oylarida
Tug'ilish	
19,1	21,1



2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 7,0 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 21,1 promilleni tashkil etdi (2021 yilning mos davrida 19,1 promille bo'lgan).

FXDYo organlarida 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 2 369 ta nikoh va 445 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,1 promilleni tashkil qilib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 1,3 promillega kamaygan (2021 yilning mos davrida 8,4 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,3 promilleni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega ko'paydi. 2021 yilning mosdavrida 0,9 promille bo'lgan.

Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (yanvar-dekabr holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)

